Loyiha rahbari:
f.f.d., prof. Raupova Laylo Raximovna
E-mail: Laylo-74@mail.ru
Тел: +99890 9306151

Loyiha mavzusi: “O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish”
Loyiha raqami: AM-Ф3-201908172

Loyihaning maqsadi. O‘zbek tilining ta’limiy korpusini yaratish xorijiy tajribalardan kelib chiqib, bosqichma-bosqich ma’lumotlar shakllantirilishiga qaratilgan va o‘zbek adabiy tilining bugungi so‘zligini qamrab olgan elektron darslik, ko‘p tilli so‘zlashgichlar va o‘zbek tilining boshqa tillarda ekvivalenti bo‘lmagan, tarjima qilinmaydigan leksik birliklari – milliy-madaniy so‘zlarning izohi berilgan glossariy, o‘zbekcha to‘g‘ri talaffuz ko‘nikmalarini shakllantirishga qaratilgan audio va videomateriallarini yaratish ko‘zda tutilgan.

Loyihaning qisqacha tavsifi (vazifasi) O‘zbek tilining ta’limiy korpusi axborot manbai sifatida quyidagi qulayliklarni yaratadi:

1) ta’limiy korpusda yaratilgan og‘zaki, yozma yodgorliklar, milliy, madaniy meros namunalari elektron ko‘rinishda Internet tarmog‘idan joy oladi;

2) o‘zbek tilining ta’limiy korpusi tabiiy (real) tilning elektron shakldagi, qidiruv dasturiga joylashtirilgan matnlar yig‘indisi; bir marta tuzilib, mukammal teglangan korpus lingvistik tadqiqotlar samaradorligini ta’minlashda barqaror lingvistik baza vazifasini bajaradi;

3) ta’limiy korpus elektron kutubxona, lug‘at, grammatikalar yaratishga asos bo‘ladi. U keng ko‘lamli bo‘lganligi uchun ma’lumotning o‘ziga xosligini kafolatlab, til hodisalarining barcha qirralarini to‘liq namoyish etishni ta’minlaydi;

Kutilayotgan natija:

- ✓ “O‘zbek tili ta’limiy korpusi” interfeysi ishlab chiqildi.
- ✓ Internet tarmog‘ida http://uzschoolcorpara.uz/ sayti yaratilib, ishga tushirildi.
- ✓ “O‘zbek tili ta’limiy korpusi”ga ma’lumot va materiallar kiritildi.
- ✓ Loyiha natijalari bo‘yicha Scopus ma’lumotlar bazasida indekslangan xorijiy nashrda maqolalar e’lon qilindi.
- ✓ O‘zbek tilining ta’limiy izohli, imloviy, ideografik, orfoepik, omonim, sinonim, antonim, darajalanish, paronim va iboralar elektron lug‘atining so‘zligi elektron shaklga keltirildi, korpusda shu lug‘atlarning qidiruv tizimi ishga tushirildi.

Qo‘llanish doirasi: O‘zbek tilining ta’limiy korpusi tilning lingvodidaktika va lingvistikada ma’lumotlarni markazlashtirish, qayta ishlash imkoniyati hamda korpusdan foydalanish ahamiyatini belgilaydi.

Amalga oshirish: 2020-2023 -yillarga mo‘ljallangan loyihaning umumiy moliyaviy hajmi 900 mln so‘mni tashkil etadi.